SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

**2023-yil yanvar-dekabr**

*Dastlabki ma’lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari” tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari

*(2023-yil yanvar-dekabr)*



**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi - 64,4 %**



**Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi – 5 452,1 ming so‘m**



**Xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar ulushi - 68,8 %**



**Xizmatlar hajmi 15 493,7 mlrd. so‘m**

**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste’mol xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

## Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*(1-yanvar holatiga ko‘ra)*

**Soni,** *birlikda*

| | |
|---|---|
| 2024 | 16 955 |
| 2023 | 19 340 |
| 2022 | 17139 |
| 2021 | 15 350 |
| 2020 | 12 854 |

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

| | |
|---|---|
| 2024 | 68,8 % |
| 2020 | 66,9 % |

## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*(yanvar-dekabr)*

**Soni,** *birlikda*

| | |
|---|---|
| 2023 | 2 632 |
| 2022 | 2 504 |
| 2021 | 2 790 |
| 2020 | 3 113 |
| 2019 | 2 933 |

Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

| | |
|---|---|
| 2023 | 67,2 % |
| 2019 | 58,3 % |

## Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

*(1-yanvar holatiga ko‘ra)*

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

| Yil | Ulushi |
|---|---|
| 2024 | 63,1 % |
| 2020 | 59,5 % |

**Soni,** *birlikda*

| Yil | Soni |
|---|---|
| 2024 | 12 990 |
| 2023 | 15 372 |
| 2022 | 13 332 |
| 2021 | 11 634 |
| 2020 | 9 226 |

## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

*(yanvar-dekabr)*

**Soni,** *birlikda*

| Yil | Soni |
|---|---|
| 2023 | 2 522 |
| 2022 | 2 275 |
| 2021 | 2 635 |
| 2020 | 2 993 |
| 2019 | 2 749 |

Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

| Yil | Ulushi |
|---|---|
| 2023 | 66,3 % |
| 2019 | 56,7 % |

## Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi [1)]

*(yanvar-dekabr)*




## Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o‘sishiga xizmat turlarining qo‘shgan hissasi

*(2023-yil yanvar-dekabr)*




*[1)] Shu va keyingi o‘rinlarda 2019-2022-yillar ko‘rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko‘rib chiqilgan*

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari

*(2023-yil yanvar-dekabr)*

| | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | Ulushi, *% da* | O‘sish sur’ati, *% da* |
|---|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** [1)] | 15 493,7 | 100,0 | 110,5 |
| Termiz sh. | 3967,6 | 25,6 | 111,8 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oltinsoy | 602,7 | 3,9 | 109,9 |
| Angor | 658,5 | 4,3 | 109,9 |
| Boysun | 486,4 | 3,1 | 110,5 |
| Bandixon | 344,8 | 2,2 | 109,3 |
| Muzrabot | 671,7 | 4,3 | 109,3 |
| Denov | 1941,4 | 12,6 | 110,4 |
| Jarqo‘rg‘on | 881,4 | 5,7 | 109,5 |
| Qumqo‘rg‘on | 1416,3 | 9,1 | 107,9 |
| Qiziriq | 594,0 | 3,8 | 110,1 |
| Sariosiyo | 933,6 | 6,0 | 110,8 |
| Termiz | 709,1 | 4,6 | 112,4 |
| Uzun | 630,1 | 4,1 | 109,2 |
| Sherobod | 830,2 | 5,4 | 110,9 |
| Sho‘rchi | 825,9 | 5,3 | 112,4 |

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi *(yanvar-dekabr)*






## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi *(2023-yil yanvar-dekabr)*

| | Hajmi, ming. so‘mda | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** | 5 452,1 | 107,9 |
| Termiz sh. | 19 977,7 | 108,4 |
| Oltinsoy | 3 166,9 | 107,4 |
| Angor | 4 634,3 | 107,4 |
| Boysun | 3 945,0 | 108,2 |
| Bandixon | 4 209,6 | 106,4 |
| Muzrabot | 4 419,2 | 106,9 |
| Denov | 4 679,2 | 107,7 |
| Jarqo‘rg‘on | 3 747,6 | 106,8 |
| Qumqo‘rg‘on | 5 613,6 | 105,4 |
| Qiziriq | 4 845,1 | 107,9 |
| Sariosiyo | 4 143,6 | 108,3 |
| Termiz | 8 492,7 | 109,5 |
| Uzun | 3 395,1 | 106,7 |
| Sherobod | 3 983,8 | 108,5 |
| Sho‘rchi | 3 657,6 | 109,7 |

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi *(yanvar-dekabr)*




Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxona subyektlarining ulushi **16,7** foizni, shu jumladan, **64,4** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik
*(2023-yil yanvar-dekabr)*



## Xizmatlar sohasining turlari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlari

*(2023-yil yanvar-dekabr)*

| Nomi | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | Ulushi, *% da* | O‘sish sur’ati, *% da* |
|---|---|---|---|
| **Xizmatlar – jami** | **15 493,7** | **100,0** | **110,5** |
| shu jumladan: | | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 766,7 | 5,0 | 124,4 |
| Moliyaviy xizmatlar | 3 358,9 | 21,7 | 115,3 |
| Transport xizmatlari | 2 346,6 | 15,2 | 111,9 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 2 083,8 | 13,4 | 105,2 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 568,8 | 3,7 | 110,9 |
| Savdo xizmatlari | 5 362,5 | 34,6 | 106,9 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 372,3 | 2,4 | 104,4 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 797,4 | 5,1 | 119,1 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 207,0 | 1,3 | 105,5 |
| Ijara xizmatlari | 293,7 | 1,9 | 100,4 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 390,4 | 2,5 | 103,2 |
| Shaxsiy xizmatlar | 445,9 | 2,9 | 107,4 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 235,5 | 1,5 | 100,6 |
| Boshqa xizmatlar | 348,0 | 2,2 | 104,5 |

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o‘tish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo‘lgan bo‘limlar bo‘yicha xizmatlar bilan bog‘liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko‘ra muvofiqlashtirildi.

## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

*(yanvar-dekabr)*




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

*(2023-yil yanvar-dekabr)*

| Hudud | Hajmi, mlrd. so‘mda |
|---|---|
| **Surxondaryo viloyati.** | **3 358,9** |
| Termiz sh | 1 050,1 |
| Qumqo‘rg‘on | 676,0 |
| Denov | 452,1 |
| Sariosiyo | 207,7 |
| Jarqo‘rg‘on | 171,0 |
| Sherobod | 122,4 |
| Sho‘rchi | 118,3 |
| Uzun | 88,6 |
| Qiziriq | 84,1 |
| Termiz | 79,5 |
| Angor | 77,8 |
| Muzrabot | 76,4 |
| Oltinsoy | 63,1 |
| Boysun | 56,4 |
| Bandixon | 35,4 |

**Hajmi, mlrd. so‘mda**

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

*(2023-yil yanvar-dekabr)*




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **31,3** foizni yoki **1 050,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-dekabr** oylariga nisbatan Termiz shahrida yuqori o‘sish sur’ati **123,0** % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **88,8** %.

Termiz shahrida transport xizmatlari hajmi **463,1** mlrd. so‘mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati **126,4** % ni tashkil etgan.

## Transport xizmatlari dinamikasi

*(yanvar-dekabr)*




## Hududlar kesimida transport xizmatlari

*(2023-yil yanvar-dekabr)*




*[1] hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

**Hajmi, mlrd. so‘mda**

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi *(yanvar-dekabr)*

**2023-yil yanvar-dekabr oylarida** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2083,8** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,4 %** ni tashkil etdi




### Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari
*(2023-yil yanvar-dekabr)*

| Hudud | Hajmi, mlrd. so'mda |
|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** | **2083,8** |
| Termiz sh | 393,6 |
| Denov | 241,9 |
| Sariosiyo | 141,6 |
| Qumqo'rg'on | 136,0 |
| Sherobod | 134,7 |
| Jarqo'rg'on | 133,5 |
| Sho'rchi | 120,5 |
| Angor | 115,9 |
| Uzun | 107,2 |
| Muzrabot | 106,2 |
| Qiziriq | 103,2 |
| Oltinsoy | 97,3 |
| Termiz | 93,3 |
| Boysun | 89,4 |
| Bandixon | 69,5 |

**Hajmi, mlrd. so'mda**



### Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi
*(2023-yil yanvar-dekabr)*

**64,9 %** — **Yo'lovchi tashish**

**35,1 %** — **Yuk tashish**

*1) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

**2023-yilning yanvar-dekabr** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining **82,9** foizini tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari dinamikasi
*(yanvar-dekabr)*






## Hudidlar kesimida savdo xizmatlari
*(2023-yil yanvar-dekabr)*




*[1] hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2023-yilning yanvar-dekabr** oylarida ularning ulushi **93,5** foizni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi

*(yanvar-dekabr)*




## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari *(2023-yil yanvar-dekabr)*




[1] *hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

## OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to‘plami *(2023-yil yanvar-dekabr)*

| Nomi | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | Umumiy hajmdagi ulushi, *% da* |
|---|---|---|
| **Jami** | **766,7** | **100,0** |
| shu jumladan: | | |
| **AKT xizmatlari sektori** | **748,4** | **97,6** |
| shu jumladan: | | |
| Telekommunikatsiya xizmatlari | 716,7 | 95,8 |
| Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar | 31,7 | 4,2 |
| | | |
| **Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori** | **18,3** | **2,4** |
| shu jumladan: | | |
| Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo‘yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari | 11,7 | 63,9 |
| Kino - videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqarish bo‘yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari | 1,2 | 6,6 |
| Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo‘yicha xizmatlar | 1,4 | 7,7 |
| Boshqa axborot xizmatlari | 4,0 | 21,8 |

## Ta’lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

*(yanvar-dekabr)*




Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023-yil yanvar-dekabr** oylaridagi ulushi **43,2** % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida ta’lim sohasidagi xizmatlar

*(2023-yil yanvar-dekabr)*

| | Hajmi, mlrd. so‘mda | O‘sishi |
|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** | 797,4 | +19,1 % |
| Termiz sh | 412,7 | +20,8 % |
| Denov | 144,8 | +20,7 % |
| Termiz | 48,0 | +19,8 % |
| Sho‘rchi | 34,0 | +12,8 % |
| Sherobod | 33,1 | +15,9 % |
| Jarqo‘rg‘on | 20,2 | +10,4 % |
| Sariosiyo | 19,1 | +23,3 % |
| Qumqo‘rg‘on | 14,9 | +12,6 % |
| Uzun | 14,1 | +15,1 % |
| Qiziriq. | 13,3 | +13,2 % |
| Angor | 12,3 | +15,1 % |
| Oltinsoy | 11,0 | +12,9 % |
| Boysun | 9,2 | +17,6 % |
| Muzrabot | 8,8 | +14,2 % |
| Bandixon | 1,9 | +2,8 % |

# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari

## Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi

*(yanvar-dekabr)*

**2023-yilning yanvar-dekabr** oylarida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **42,6** foizni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar *(2023-yil yanvar-dekabr)*



## Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar dinamikasi

*(yanvar-dekabr)*




Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo‘yicha xizmatlar **96,2** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar *(2023-yil yanvar-dekabr)*




[1)] *hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

**Hajmi, mlrd. so‘mda** **O‘sishi**

**2023-yilning yanvar-dekabr** oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar ustunlik qildi – **90,7** foiz.

## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar dinamikasi *(yanvar-dekabr)*




## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

*(2023-yil yanvar-dekabr)*




[1] *hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

**Hajmi, mlrd. so‘mda** **O‘sishi**

## Ijara xizmatlari dinamikasi
*(yanvar-dekabr)*




## Hududlar kesimida ijara xizmatlari *(2023-yil yanvar-dekabr, mlrd. so‘mda)*




**2019-yilning yanvar-dekabriga** nisbatan o‘rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **110,9** mlrd. so‘mga oshib, **293,7** mlrd. so‘mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023-yil yanvar-dekabr** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmat-larining ulushi **68,7** % ni tashkil etdi.



[1)] *hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari dinamikasi *(yanvar-dekabr)*




Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlarining **39,7** foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari *(2023-yil yanvar-dekabr)*

| Hudud | Hajmi, mlrd. so‘mda | O‘sishi |
|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** | **390,4** | +3,2 % |
| Termiz sh | 69,5 | -6,3 % |
| Denov | 45,2 | +6,0 % |
| Sariosiyo | 25,7 | +5,5 % |
| Qumqo‘rg‘on | 25,3 | +4,9 % |
| Jarqo‘rg‘on | 25,1 | +6,6 % |
| Sho‘rchi | 24,6 | +5,7 % |
| Sherobod | 24,2 | +5,8 % |
| Angor | 22,4 | +4,9 % |
| Uzun | 21,0 | +4,0 % |
| Muzrabot. | 21,0 | +5,4 % |
| Oltinsoy | 19,3 | +4,2 % |
| Qiziriq | 18,2 | +6,5 % |
| Termiz | 17,6 | +6,9 % |
| Boysun | 17,3 | +6,4 % |
| Bandixon | 13,9 | |

*[1] hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

Hajmi, mlrd. so‘mda — O‘sishi

## Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi *(yanvar-dekabr)*




## Hududlar kesimida me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar *(2023-yil yanvar-dekabr, mlrd. so‘mda)*




**2019-yilning yanvar-dekabr** oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **139,2** mlrd. so‘mga oshib, **235,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **74,9** % ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi**
***Tel.: 76-225-65-91***

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlar uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari boʻyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʻliq boʻlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma’lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmogʻi va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga oʻrgatishni oʻz ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga oʻxshash boshqalar kiradi.

**Ta’lim sohasidagi faoliyat**ni amalga oshirishda masofaviy oʻqitish shaklini ham hisobga olgan holda koʻrsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko‘rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo‘yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.

**Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarni** ko‘rsatishda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta’mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog‘ uchun uskunalar (gazon o‘ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta’mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o‘z ichiga oladi.